

**RANGTASVIR DARSLARIDA NATYURMORT KOMPOZITSIYASI  
TASVIRLASHNI O'RGATISHDA RANG MUNOSABATLARI VA FAZOVIIY  
TASAVVURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**Suvankulov S.M**

*SamDPI "TS va TT" kafedrası assistenti, F.Rustamov "TS va MG" yo'nalishi I bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola rangtasvirda natyurmort kompozitsiyalarini tuzish va tasvirlashga doir qonuniyatlarini qisqacha yoritishga qaratilgan bo'lib, tanlangan bir natyurmort asosida bosqichli metodik yechimlari ko'rsatilib o'tildi. Bosqichma-bosqich ishlash jarayonlarida nimalarga e'tibor berib ishlash kerakligi atroflicha yoritilib o'tildi.*

**Kalit so'zlar:** *Qo'yilma, kompozitsion markaz, muvozanat, simmetriya, fazoviy joylashuv, yaxlit kuzatish, umumiylik, xususiylik, komponovka, metodika, shu'la, kontrast, nyuans.*

Har qanday natyurmort tasvirini ishlashdan avval uni tuzish, chizilajak natura shakliga keltirish oddiy ish emas yoki uni yaratishga yuzaki yondoshib bo'lmaydi. Bunda natyurmort detallarining bir-biriga mutannosib tarzda qo'yilmada aks etishini ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi.

Ma'lumki, natyurmortda asosiy talablardan biri, o'lcham, rang va tus jihatdan ajralib turish hamda surat tekisligining markaziga yaqin joyga qo'yilishidir. Bu surat mazmunini ochishga so'z boshlovchi vazifasini o'taydi, kompozitsiyaning markazini bo'rtirib ko'rsatib turadi. Lekin u albatta har safar surat tekisligining o'rtasida turish shart emas, negaki unda postanovka (qo'yilma) zerikarli chiqishi mumkin. Ko'pincha rassomlar asosiy predmetni ataylab geometrik markazdan sal siljitib qo'yadilar muvozanatni saqlash uchun qarama-qarshi tomonda rangi va och-to'qligi unga zid bo'lgan predmet oladilar. Taniqli natyurmortchi rassomlar Sezon, Shorden, Xrukpiylar bu usuldan foydalanganlar.


Natyurmort qo'yilmasini kompozitsion tuzishda qonuniyatlar asosida bir xil narsalardan bir necha ko'rinishdagi natyurmortlar tuzish mumkin, lekin har gal ham hajmlarning katta-kichikligi va bo'laklarning och-to'qligi o'rtasidagi muvozanat saqlanib qolishi rang munosabatlari, detallar hajmi, materialligini, markazlashtirish, kontrast-nyuans, statik-dinamik, simmetriya-asimmetriya masalalari va fazoviy-perspektiva qonuniyatlariga asoslangan holda tuzishda bitta natyurmortda bir necha teng ahamiyatli kompozitsion markaz bo'lmaydi, unda natyurmortning butunligiga putur yetadi. Har vaqt natyurmortdagi narsalar o'rtasida uzviy bog'lanish bo'lsa, shu bilan birga ulardan foydalangan yoki foydalanadigan inson bilvosita yaqqol sezilib tursa u ma'nodor tuyuladi. Natyurmortni o'rnatish vaqtida predmetlarni bir necha marta qo'yib ko'rish, ular birgalikda qanday ko'rinishini sinchiklab kuzatish agar

ma`qul bo`lsa chizishni boshlash, ma`qul bo`lmasa yana qayta-qayta bu ishni takrorlash va yaxlitlik paydo bo`lguncha davom ettirish kerak.

Tekisligining asosidan kompozitsiya markaziga qaratib qo`yilgan pichoq, qoshiq, qog`oz o`rami, mo`yqalam va hokazolar surat mazmunini ochishga yordam beradigan «kalit» bo`lib, tomoshabin nigohini kompozitsiya markaziga yo`naltiradi. Natyurmortning fazoviy holatini yaqqolroq tasvirlash uchun birinchi ko`rinishda uncha katta bo`lmagan, ammo yorqin narsa qo`yiladi. Qo`yilmaga kiradigan narsalarning kattasi orqaroqda, maydalari oldinroqda biri ikkinchisini bir oz berkitib turadigan qilib qo`yiladi. Natyurmort murakkab va ko`p buyumli bo`lgan taqdirda eng ahamiyatli narsa ikkinchi planda joylashtiriladi. Natyurmortning fazoviy holatini yaqqolroq tasvirlash uchun birinchi planda uncha katta bo`lmagan, ammo yorqin narsa qo`yiladi. Natyurmortning ufq tekisligiga nisbatan qanday joylanishi ham katta ahamiyatga ega. Ma`lumki, ko`z balandligi pastroqqa qo`yilgan natyurmort yopiq predmet tekisligida to`la-to`kis ko`rinib turadi.



Amaliy jarayonga tanlab olingan natyurmortda nisbatan to`q rangdagi va yana hajm jihatidan katta bo`lgan daraxt shoxlaridan to`qilgan savat orqa planda, ikkinchi hajmi o`rtacha bo`lgan detal oq rangdagi idish o`rtaroqda va nisbatan kichik, rang-barang mevalar oldingi planda kompozitsion yechim asosida taxt qilingan. Qo`yilma tuzilganidan so`ng uning barcha rakurslaridan qaralganida natura chiroyli ko`rinish kasb etishi lozim.



Narsalarning shaklini va fazoviy joylashuvini to`liqroq ochib berish uchun yorug`lik nurlari olddan va yondan tushadigan bo`lishi kerak. Shunda natyurmortdagi predmetlarning yorug`lik manbaiga qaragan tomonidan yorug`lik, qarshi tomonda soya, yarim soya, refleks va tushuvchi soyalar yaqqol ko`rinib, bular hammasi birgalikda ularning hajmdor ekanligini yaqqol ko`rsatib turadi.

Rasm ishlash bosqichlarida natura bilan tasvirni mutaasil yaxshilab taqqoslab, umumlashtirib chiqish lozim. Buning uchun rasm ishlanayotgan taxta(planshet) ni naturaga yaqinroq yerga qo`yib, o`tirgan joydan har ikkalasiga tez-tez ko`z yuritib qarasa ham bo`ladi. Qo`ygan natyurmortimiz o`zimizga yoqadigan bo`lishi lozim, shunda uni ishtiyiq bilan tasvirlaymiz. Birinchi navbatta, tanlangan narsalarning yagona maqsadga qaratilgan yaxlit bo`lib ko`rinadigan qilib qo`yib ularni devor yaqiniga bir qator qilib terib qo`yamiz, keyin fondan goh uzoqlashtirib, goh yaqinlashtirib qarab kuzatamiz.

Yorug'lik nurlari natyurmortga bir tomondan tushadigan qilib uning yon tomonidan yuqoriroqda yoritgichlar o'rnatilsa, qo'yilgan narsalarning shakli yaqqol ko'rinadi, shaxsiy va tushuvchi soyalar aniq ko'zga tashlanib turadi. Ma'lumki, narsalar silliq va g'adir –budir, yaltiroq va xira, tekis va notekis sirtli bo'ladi.

Natyurmortlarning tarkibiy qismiga burmalangan gazlamalar kirish bilan mazmundorlik oshadi. Tasvirda gazlamalarning o'ziga xos tuzilishi, ulardan taxlam va burmalarning shakli orqali ifodalanadi. Shuning uchun rasmda ayni shu gazlamaga o'xshashlikka erishishning birdan-bir to'g'ri yo'li taxlarning shaklini yorug' va soyalar vositasida batafsil ishlab chiqishdir. Dastlab natyurmortlarda dag'al, sidirg'a matolardan foydalanish, ulardan yirik burmali yaxlit taxlar hosil qilish mumkin, bu esa tasvirlash uchun qulay. Keyinchalik malakaning ortishi bilan natyurmortlarni murakkablashtirib, mayin to'qilgan har xil matolardan taxlash mumkin. Natyurmortlarning asta-sekin murakkablashtirish darajasi narsalar sonini ko'payish, ularning turli-tuman rang-barang shakl va o'lchovga ega bo'lishi hisobiga amalga oshiriladi. Quyidagi narsalar albatta, murakkabroq, yirik narsa bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Natyurmort tuzishda tajribasi yo'q odam ham qandaydir ichki hissiyoti asosida chiroyli guldondagi rang-barang gullar yoniga olma qo'yib tasvirlanishi mumkin.

Naturani qo'yish fon vazifasini o'tovchi mato taxlamalaridan boshlanadigan bo'lsa, issiq va sovuq ranglarni kerakli joyida qo'llash, qalinligi va yupqaligini hisobga olish, og'ir va yengil ranglarni joylashtira olish kabi bir-muncha murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Masalan ushbu natyurmort uchun orqa fonda jigarrang, oldingisida esa oq mato tanlangan. Natyurmort qo'yilmasini qog'ozga tushirishda kompozitsion joylashtirishga katta e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Qo'yilmadagi detallar markazlashganligiga e'tibor qaratamiz. Ushbu natyurmortda markaz detali sifatida savatni misol qila olishimiz mumkin. Negaki savat hajm jihatidan, detallarni markazda yig'ib turibdi. Naturaning rang munosabatlariga qarab komponovkada doimiy qoidalarga nisbatan biroz o'zgarishdagi kompozitsion joylashtirish qo'llanildi. Sababi, orqa fondagi ranglarning oldingilariga qaraganda to'q ranglardaligini hisobga olgan holda yuqori va o'ng tomonlardan chap tomonga nisbatan kamroq joy qoldirildi. Bundan tashqari nur tushayotgan tomondan ham ko'proq joy qoldirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chizishda dastlab natura yaxshilab kuzatiladi, holati (gorizontal yoki vertikal) aniqlanadi, nisbatlari (eni va bo'yi) o'zaro solishtiriladi. Shundan so'ng qog'ozga vertikal markaziy o'q chizig'i chiziladi va uning ikkala tomoniga teng ravishda umumiy ko'rinishning eng chetki chiziqlari chizilib, kompozitsion joylashtiriladi (1-rasm).



Chizish jarayonida shakllar iloji boricha umumiy holda ko'rib, geometrik shakllarga keltirilib, dastlab nisbatan katta hajmdagi detallarni so'ngra kichik elementlarni tasvirlashdan boshlanadi. Geometrik yasashlar orqali detallar osonroq topiladi. Natyurmort ishlash olti bosqichda keltirilgan. Dastlab qalamda chizib tugallangan tasviri va akvarel bo'yog'ida ochiq va engil rang berilib to'liq tugallangan jarayonga qadar ishlangan tasvirlari ko'rsatib o'tilgan.



Akvarel bo'yog'ida ishlash murakkab jarayon bo'lganligi sababli rang berishni katta yuzalarga ochiq ranglarda va yengil ishlashdan boshlanadi. Barcha elementlar birdek ranglanishi lozim, chunki rang toni bir-biriga mutannosib bo'lishini ta'minlash kerak. Barcha elementlarga birdaniga rang berilmasa ranglar tonidagi yaxlitlik yo'qoladi. Rangda ishlash jarayoni shu yo'sinda ochiq ranglardan to'qlashib boraveradi. Naturadagi yaltiroq (blik) joylariga rang tekkizilmasdan qog'oz rangida qoldiriladi. Haqiqiy nur tushgan, yoki aks sifatida namoyon bo'lgan, lampaning aksi kabilar bunga misol bo'la oladi. Ushbu holatlar faqatgina shaffof yuzaga ega bo'lgan jism, detallarga tegishlidir. Sababi shu kabi jismlar nurni to'liq qaytarish xususiyatiga ega (2-rasm).



Rang berish jarayonida ranglarni aralashtirish qoidalariga amal qilgan holda bir biriga yaqin ranglar aralashtirilib detal rangi topiladi. Masalan: mevalardan anor, olma ranglarini topishda qizil, sabzirang, jigarrang, pushti, oz miqdorli yashil, ko'k, qora ranglardan foydalanish mumkin.

Bundan tashqari unga yaqin joylashgan elementlarning rangiga mos aks ranglarini ham topish lozim. Nok rangi ham xuddi shu yo'sinda sariq, yashil, ko'k, kam miqdorli qora ranglarni aralashtirish natijasida topiladi. Yuqoridagi jarayonlarning barchasi natura detallarining shaxsiy ranglarini bo'yashga tegishli. Ularning tushgan soyalari o'zining shaxsiy rangiga sovuq ranglarni aralashtirish orqali, ya'ni to'q ko'k, qora, binafsha rang, havo rang kabilar aralashtirilib bo'yaladi. Istisno tarzida aytish lozimki naturadagi har-bir rang qizil, sariq, ko'k, yashil, bularning barchasi bitta rangda ishlov berib chiqarilmasdan, turli ranglar aralashishi natijasida tasvirlanadi (3-rasm).



Naturadagi barcha detallarning ranglari bir-biriga aks qaytaradi, qizil olmaga sariq nokning, yoki o'zaro ranglarning aks refleksini bildirish lozim. Refleksini

tasvirlash asnosida detalning hajmdorligi ham bo'rttirib ko'rsatilishiga erishiladi. Bundan tashqari natura detallarining mato taxlamalariga ta'sirini ham topish lozim(4-rasm).

Xususiy holda barcha detallar ishlangandan keyin ular o'zaro umumiylikka keltiriladi. Bunda naturadan uzoqlashib bir ko'z yumilib, ikkinchi ko'z qisilgan holda natura umumiy kuzatiladi. Kuzatish jarayonida hamma detallarni birgalikda ko'rishga harakat qilish kerak, shunda ularning orasidagi rang tafovuti yaqqol ko'zga tashlanadi. Shundan so'ng kerakli joylarga ranglar beriladi va naturaga mos umumiylikka keltiriladi. Rang berish jarayonida yana bir muhim qoidalardan biri havo perspektivasini ko'rsata olishdir. Buni kartina chuqurligini ko'rsatish desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu jarayon katta perspektiv qonuniyatning natyurmortdagi kichik ko'rinishi orqali tasvirlanadi. Ya'ni natura detallari oralig'idagi havodorlikni va birinchi plandagi detalga nisbatan orqa planda joylashgan detallarning uzoqligini rang munosabatlari orqali ko'rsatib bera olish demakdir. (5-rasm).



Tabiatdan ma'lumki bizga yaqin turgan jismlar to'q va tabiiy ranglarda gavdalanai. Shuning uchun ham yaqinimizda turgan yam-yashil archa havo ta'sirida uzoqlashganda ko'k rangda ko'rinadi. Mana bu jarayon tasviriy san'atda havo perspektivasi deb yuritiladi. Havo perspektivasini tasvirlashda naturadagi birinchi va so'ngi detallar oralig'idagi masofa, ranglarning orqa planga borgani sari bilinmasdan ochiqroq tasvirlanishi hamda orqa planda bilinar-bilinmas havo ranglarning qo'llanilishi nazarda tutiladi. Bundan tashqari oldindagi detallar aniq chegaralari bilan ishlansa oxigi plpnda joylashgan detallar chegaralari mo'yqalamni suvga botirib olib, bir marta yuvib, fon rang bilan qisman umumlashtirilib yuborilsa masofa, chuqurlik, havo kabi tushunchalardan o'rinli foydalangan bo'lamiz (6-rasm).



#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.Erkabayeva, N .M irsolihova., "Rangtasvir", o'quv qo'llanma, Toshkent- "Info Capital Group" 2018.
2. O.Muinov. "Rangtasvir" o'quv qo'llanma, Sharq Toshkent-2007.
3. O.Yusupov. "Rangtasvirda akvarel bilan ishlash texnikasi va texnologiyasi", metodik qo'llanma, Toshkent «Chashma Print» 2011.

4. R.A.Xudayberganov. “Mahobatli rangtasvir texnika va texnologiyasi”, Toshkent – 2015.

5. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O’quv qo‘llanma. – T.:, 2013.

6. S.M.Suvankulov, J.X.Kadirov “Kompozitsiya”, “TURON NASHR” nashriyoti-Samarqand 2025.